

**MAKTABGACHA TA'LIMDA INGLIZ TILI O'QITISH
METODIKASI**

Vaxobova Zoxidaxon Abdumajit qizi

Talaba

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy rahbar: Moydinova Elmira Kamariddinovna

mirlife645@gmail.com

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b. dotsent

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi hisoblangan bolalarning bilim va qobiliyatlarini takomillashtirish, kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun poydevor bo'ladigan salohiyatni shakllantirish, ularning har taraflama yetuk, mustaqil shaxs bo'lishini, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: erta bolalik davri, intensivlik, texnologiya, kompyuter, aqliy yetuklik, salohiyat, qobiliyat.

Аннотация: в этой статье обсуждается потенциал детей, который является основной целью дошкольного образования, формирование оснований для будущего успеха, обучение их страсти к независимому человеку, независимой личности.

Ключевые слова: период раннего детства, интенсивность, технология, компьютер, умственная зрелость, способность.

Annotation: This article discusses potential of children, which is the main goal of preschool education, the formation of the foundations for future success, educating their passion for the independent person, the independent personality.

Keywords: early childhood period, intensity, technology, computer, mental maturity, capacity.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi proffessional ta'limning

Ta'limning zamонавиy трансформатсиyаси

ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo‘q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o‘rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi Natalya Kireeva “Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko‘ramiz. Birinchisini tanlaymiz”, deb ta’kidlab o‘tdi. Yaqinda u mahalliy ta'lim tizimi va prinsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to‘g‘risida o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga e’tibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir [Finlandiya talim tizimidagi qiziqarli malumotlar]. Shuni ham ta’kidlab o‘tishim kerakki, muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun maktabgacha tarbiya mutaxassislaridan erta bolalik ta'limi jarayonida eng sevimli o‘qitish strategiyalari bilan o‘rtoqlashishini so‘rab qolamiz. Maktabgacha yoshdagil sinf uchun o‘qitish strategiyalarining ushbu ro‘yxati o‘qituvchi sifatida taraqqiy etish va o‘rganish uchun juda yaxshi o‘tish imkoniyatlarini beradi.

Bugungi kunda yoshlarni yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi ularning yoshlikda olgan bilimlariga bog‘liq. Shu o‘rinda, yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor va shart-sharoitlarni e’tirof etishim lozim. Mamlakatimizda yoshlarning ta’lim olishiga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ham alohida ta’kidlab o‘taman. Hattoki yurtimizda maktabgacha ta’limda tahlil olayotgan bolalar ham qonuniy e’tibordan chetda qolmaydi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3955-son”li qarori ham uzlusiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi uchun tub burilish bo‘ldi. Ushbu qarorga muvofiq: maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha tubdan takomillashtirish ko‘rib chiqiladi. Ularning ruhan sog‘lom, ma’nан barkamol bo‘lishlari uchun barcha qulayliklar yaratib berildi. Bundan tashqari bolalarning intellektual salohiyatining oshishi, nafaqat o‘zbek tilida, balki chet tillarida ham ravon gapira olishi, eng zamонавиy texnologiyalardan yetarlicha foydalana olishi uchun maktabgacha ta'lim maskanlarining o‘zidayoq barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Bolalar tug‘ma tadqiqotchidirlar va ular hamma narsani sinchkovlik bilan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kuzatadilar. Ularda atrofdagi voqeа va hodisalarni bilishga bo‘lgan qiziqish juda katta. Deyarli barcha bolalarda nimanidir o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘ladi. Biz pedagoglar esa ularning qiziqish va o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatlarini vaqtida anglab uni to‘g‘ri tomonga yo‘naltirishni bilishimiz kerak. Masalan, ularning tillarga nisbatan qiziqishlarni o‘z vaqtida tushunib, ularning bilimlarini oshirish va ishtiyoqini kuchaytirishni texnologiyalardan va jahon ta’lim standartlariga mos keladigan metodikalardan foydalangan holda rivojlantirishimiz kerak.

Bolalarga ingliz va boshqa chet tillarini oson va ularni zeriktirmay tilga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirib o‘rgatish uchun menimcha eski usullardan qochgan holda yangi metodikalardan foydalanish o‘rinli bo‘ladi. Eng zamonaviy metodikalar esa albatta texnologiya, raqamli multimediyadir. Yoki boshqa xohlagan biror bir metodikaga yangilik kiritgan holda ta’lim berish. Masalan, o‘sha har doimgiday mevani ko‘rsatib uning inglizcha nomini o‘rgatish bilan birga uning rangi hamda unga mos bitta sifat (ya’ni uning shaklimi) bilan o‘rgatib ketishsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. (apple-olma-green-yashil, red-qizil). O‘zbek tilida so‘zlashuvchi bolalar uchun ingliz tilini qiyinchiliksiz o‘yin orqali o‘rganish mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘yin davomida ingliz tilidagi yangi so‘z va iboralar tezroq va osonroq o‘zlashtiriladi, ya’ni bolaning tasavvurida bu iboralarni qachon va qanday holatda qo‘llash xususiyati shakllanadi. Turli topshiriqlardan iborat didaktik o‘yinlar nafaqat bolalarning ingliz tilida so‘zlash qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantiradi, balki kelajakda ingliz tilida so‘zlashuvchi do‘stlari bilan erkin fikr almashish qobiliyatini ham shakllantiradi (Kamariddinovna, 2022; 387). Demak, bolalarga ingliz va boshqa chet tillarini o‘rgatishda eski usullardan qochib, zamonaviy metodikalardan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. Texnologiya va raqamli multimedia kabi yangiliklar, o‘yinlar orqali til o‘rgatish esa o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni zeriktirmsandan o‘rganishga yordam beradi. O‘yin davomida yangi so‘zlar va iboralar tez va oson o‘zlashtiriladi, bu esa bolalarning tilni tabiiy va samarali o‘rganishiga turtki bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar nafaqat ingliz tilida so‘zlashish qobiliyatini rivojlantiradi, balki kelajakda erkin fikr almashish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Ularni yaxshi rag‘batlantirish ham ularning tilga bo‘lgan qiziqishlarini yanada

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

oshirishi mumkin. Chunki yosh bolalar qilgan mehnatlari uchun rag‘bat olishni yoqtirishadi. Misol uchun ularni so‘z boyliklarini ko‘paytirish uchun ular orasida musobaqa tashkillash ham samaralidir.

Bilamizki, bolalar tabiatdan qiziquvchan va o‘yinqaroq bo‘ladi. Bolalarda asosan bilim olish jarayoni taqlidiy jarayonlarga bog‘liq bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda ularga ertaklarni o‘zлari ishtirokida ingliz tilida sahnalashtirish ham ularning bilimlarini tez va oson usulda rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ularga she’r, qo‘sish va maqollarni ingliz tilida yodlatishning ham samarali tomonlari ko‘p deb o‘ylayman. Masalan, olima Moydinova E.K. taklif qilgan loyiha o‘yinida, bolalar o‘yinini tanlab, uni ijro etish jarayoni ijodiy va o‘quv jarayonining bir qismi sifatida muhim bo‘ladilar. Rol taqsimlash va liboslar tayyorlash, bolalarga har bir rolni bajarish uchun zaruriy tayyorgarlikni ko‘rish imkonini beradi. Ushbu ishlab chiqarish jarayonida bolalar sahnaga tayyorlanish, o‘z rollarini o‘rganish va ijro etish orqali ham ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar, ham guruhda ishlash ko‘nikmalarini oshiradilar. Maktabgacha yoshdagи bolalar uchun sahnalashtirishni tashkil qilishda, o‘yin va rolni birlashtirib, bolalarning qiziqishlarini uyg‘otish va ularni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish muhimdir. Bu orqali, bolalar o‘zlarini o‘yinda erkin ifoda etishadi va yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar (Kamariddinovna, 2022; 3).

Bog‘cha yoshidagi bolalarda tilga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish uchun moddiy texnik bazani shakllantirish ham zaruriy masalalardandir. Bugungi globallashib borayotgan jamiyatda texnologiyalardan o‘rinli foydalanib, ulardan bolalarning texnik bilimlarini chet tilida oshirishni rejalashtirish kerak. Masalan ”Applying technology to inquiry-based learning in early childhood education” nomli maqolada texnologiyalarning bolalarga ta’siri to‘g‘risida juda oz tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, texnologiya asosida o‘qitishni loyihalash ishlari olib borilganligi va buning natijasi ijobiy bo‘lganligi haqida so‘z yuritilgan. Bundan xulosa qilgan holda biz bolalarga chet tillarini o‘rgatish davomida ularning kompyuter texnologiyalariga doir bilimlarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiqdир. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bolalar bog‘chasi raqamli multimedia bilan to‘liq ta’minlangan. O‘zbekistonda ham yangi ommaviy multimedia vositalarini bolalar bog‘chasiga tadbiq

qilish foydalidir.

Bolalarning ingliz tilida eshitish qobiliyatini shakllantirish uchun ularga ingliz tilidagi multfilmlarni qo‘yib berish, qo‘sinq eshittirish ajoyib uslublardan biri hisoblanadi.

Biz bolalarga ularning ilk bolalik kunlaridanoq dunyo bilan hamnafas bo‘lib yashashi uchun ularni chet tillaridagi va kompyuter texnologiyalaridagi bilimlarini oshirib, ularni kelajak hayotga tayyorlashimiz bugungi kunimizning dolzarb mavzusi bo‘lib qoladi hamisha.

Xulosa sifatida, bolalarning ingliz tilidagi eshitish qobiliyatini shakllantirishda, ingliz tilidagi multfilmlar va qo‘sinqlarni eshittirish samarali va qiziqarli usul bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv bolalarga tilni tabiatda va amalda o‘rganishga yordam beradi, ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, bolalarni chet tillari va kompyuter texnologiyalaridagi bilimlarini oshirish orqali, ularni kelajak hayotga tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Bu, nafaqat ularning til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, balki zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lishlariga imkon yaratadi.

REFERENCE:

1. Eggen, D.A.J., & Kauchuk, P. (2002). *Methods for teaching: Promoting student learning*. [Book]
2. Kamariddinovna, M.E. (2022). The particularities of English teaching at preschool education establishment. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 387-391.
3. Kamariddinovna, M.E. (2022). THE STRUCTURE OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRESCHOOL ENGLISH TEACHERS. *International Journal of Pedagogics*, 2(07), 1-4.
4. Wang, F., Kinzie, M.B., McGuire, P., & Pan, E. (2010). Applying technology to inquiry-based learning in early childhood education. *Early childhood education journal*, 37, 381-389.